

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**PREMCHAND AND CHINNAPPA BHARATI**

Maktuba Maxamatjonovna Murtazaxodjayeva
Senior Lecture of Tashkent State University of Oriental Studies.
Tashkent, Uzbekistan
said_lola@mail.ru

Abstract: This article is devoted to a comparison of two novels written by Munshi Premchand, the outstanding figure of Hindi literature, the king of novels, and Chinnappa Bharati, the famous writer of Tamil literature, the similarities and differences between Premchand's novel "Destiny" and Chinnappa Bharati's novel "Thirst" are examined. The novel "Destiny" reveals a difficult fate of the main character Hori, and the novel "Thirst" describes the problems of the poor peasant Marappan and his family. In these novels by the two creators, there are noticeable similarities in the ways of depicting rural life and the style of creating images.

Keywords: novel, realism, "Kismat", "Thirst", community, rural life.

PREMCHAND VA CHINNAPPA BHARATI

Murtazaxodjayeva Maktuba Maxamatjonovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o'qituvchisi.
Toshkent, O'zbekiston
said_lola@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada hindiy adabiyotining yirik namoyandasi, romanlar qiroli Munshi Premchand va tamil adabiyotining mashhur adibi Chinnappa Bharatining ijodiga mansub bo'lgan ikki romanlarning muqoyasi xususida so'z boradi. Premchandning "Qismat" romani va Chinnappa Bharatining "Chanqov" romanidagi o'xshash va farqli tomonlariga to'xtalib o'tiladi. "Qismat" romanining bosh qahramoni Ho'ri va uning og'ir hayoti aks ettirilgan bo'lsa, "Chanqov" romanida kambag'al dehqon Marappan va uning oilasidagi muammolar yoritib berilgan. Ikki ijodkorlarning ushbu romanlarida qishloq hayotini tasvirlashdagi, obraz yaratish uslubidagi o'xshashliklar ko'zga tashlanadi.

Kalit so'zlar: roman, realizm, "Qismat", "Chanqov", mushtaraklik, qishloq hayoti.

Аннотация. Данная статья посвящена сравнению двух романов, принадлежащих перу выдающегося деятеля литературы хинди, короля

романов Мунши Премчанда и известного писателя тамильской литературы Чиннаппы Бхарати, рассматриваются сходства и различия романа Премчанда «Судьба» и романа Чиннаппы Бхарати «Жажда». В романе «Судьба» раскрывается тяжелая судьба главного героя Хори, а в романе «Жажда» описаны проблемы бедного крестьянина Мараппана и его семьи. В этих романах двух творцов заметно сходство в способах изображения сельской жизни и стиле создания образов.

Ключевые слова: роман, реализм, «Кисмат», «Жажда», общность, сельская жизнь.

Mohir tarjimon, tamil va hindiy adabiyoti bilimdoni N.Balasubramanyam o‘zining “Yirik taraqqiyparvar adiblar” nomli maqolasida quyidagi fikrni keltiradi: “Chinnappa Bharati bilan tenglasha oladigan adib yo‘qmi? degan savol tug‘ilishi tabiiy. Uzoq izlanishlarimizdan so‘ng, hind adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyondasi Kamleshvardan so‘radik. Kamleshvar Chinnappa Bharatining “Pavlaiy” romaniga taqriz yozar ekan, taqrizining avvalida quyidagi jumlani keltiradi: “Chinnappa Bharatining Hindiston qishloqlari, og‘ir mehnatdan qochmaydigan dehqonlar va qora ishchilar hayoti tasvirlangan hikoyalari real hayot bilan shunchalik yaqinki, bunday tasvirlarni faqat Premchand va Yashpal ijodidagina ko‘rganman” – deb yozadi. [1,15]

Hindiston adabiyoti o‘zining ko‘ptilligi, serqirraligi va janrlarga boyligi bilan ajralib turadi. Janubiy Osiyo xalqlari adabiyoti kabi Hindiston adabiyotiga ham zamon zayli bilan turli janrlar, yo‘nalishlar va yondoshuvlar kirib kelgan, o‘z o‘rnida rivojlangan, ommalashgan. Mazkur jarayonlar turli millat vakillari–olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Hind xalqlari adabiyotida realizm zamonaviy adabiy yo‘nalishdir. Hindiy adabiyotida realistik yo‘nalishda ijod qilgan serqirra adib Premchand bo‘lsa, xudda shu yo‘nalishda tamil adabiyotida ijod qilgan adib Chinnappa Bharatidir.

Realizmning hind diyorida keng quloch yoyib rivojlanishida G‘arb va Rus adiblari va ular tomonidan yozilgan asarlarining ta‘siri katta bo‘lgan. XIX-XX asrlarda g‘arb va rus adabiyoti bilan yaqindan tanishish, asarlarni tarjima qilish keng ommalashdi. Buning oqibatida roman janri, realizm yo‘nalishi shakllandi va rivojlandi. Ma‘lumki, Hindiston xalqlari adabiyotida eng avval ma‘rifiy realizm ildiz otgan. Ma‘rifatparvar va didaktik asarlar ko‘plab yozilgan. Hindistonda tanqidiy realizm tendensiyalarining rivojlanishida Munshi Premchand ning xizmati kattadir. Tamil adabiyotida serqirra ijodkor Chinnappa Bharati esa sotsial realizm yo‘nalishi vakilidir. Quyida ushbu ikki ijodkorning umumiy mushtaraklik va tafovutlik jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Premchand (1880-1936) o‘z ijodini urdu tilida Navabray taxallusi bilan boshlaydi. Premchand yoshligidanoq urdu tilida kichik-kichik hikoyalar yozib, adabiyot sohasidagi o‘z faoliyatini asta-sekinlik bilan boshlaydi. U Kashmirdagi bir oliygohda o‘qituvchi bo‘lib ham ishlaydi. Premchand qishloq odamlari, ularning taqdiri, ayol taqdiri va shunga o‘xshash muammolarni o‘z ijodining asosiy mavzusi qilib oladi.

Premchand XX asrning birinchi va ikkinchi o‘n yilliklarida milliy ozodlik harakatiga o‘z ijodi bilan juda katta hissasini qo‘shdi. Uning dastlabki ijod

namunalaridayoq Mahatma Gandi ta'limotining ta'siri sezilgan edi. Premchand Hindiston adabiyotida ilk bor XX asrning birinchi o'n yilligidan boshlab tanila boshladi. U 1907 yildan hikoyalar yozishni boshlaydi. "Katta uyning qizi" uning urdu tilidagi ilk hikoyasi edi. 1908 yilda uning ilk hikoyalar to'plami ("Vatan muhabbati" / "Soz-e-Vatan") nashr qilingan. Premchand o'zining «Jang maydoni» (1920y.) nomli romanini urdu tilida yozadi, keyinroq o'zi uni hindiy tiliga tarjima qiladi. 1922 yilda Premchandning «Kurash» dramasi va «Sevgi maskani» romani nashr etiladi. Bu ikkala asarning mavzusi hind qishloqlaridagi o'zaro munosabatlar masalasiga bag'ishlangan. «Jangovor yo'l» (1932y.) nomli hikoyalar to'plamida ish tashlash, sadaqa olish, qamoqqa olish kabi muammolarni o'z ichiga olgan hikoyalar mujassam edi.

Premchand butun ijodiy hayoti davomida 300 dan ortiq hikoya, 13 ta roman va bir qancha pesalar yozgan. Shu bilan birga Premchand noshir sifatida ham faoliyat olib borgan, u o'zining bir qancha gazeta va jurnallarini hindiy va urdu tillarida chop ettirgan. U ijod qilish bilan birga tarjima sohasida ham o'z mahoratini ko'rsata olgan. Premchand R. Tagor, L. Tolstoy, Dj. Elliot, B. Shou, A. Frans kabi bir qancha taniqli yozuvchi va olimlarning asarlarini tarjima qildi va ularning asarlarini gazeta va jurnallarida chop ettirdi. U o'z asarlarida hind xalqining keng doiradagi eng muhim, masalalarni tanqidiy realizm yo'nalishida bayon etgan. Premchand o'zining ijodiy qirralari bilan hindiy va urdu adabiyoti rivojiga ta'sir ko'rsata oldi. Premchandning ijodiy mahsuloti nafaqat. Bundan tashqari u hindiy nasrchiligida insonning ichki dunyosini yoritib berishga harakat qildi. Past tabaqali aholining hayotini, ularning jamiyatdagi o'rni va oila muammolarini, ayollarning oilada tutgan o'rni va beva ayollarning hayotini, eskirib qolgan urf-odatlarini o'z ijodining mavzusi qilib oldi. Premchand Taraqqiyparvar hind yozuvchilari uyushmasining birinchi raisi ham bo'lgan.

Premchand ijodi rus va o'zbek hindshunoslarining ilmiy-tadqiqot ishlarida keng yoritib berilgan.[2] Uning quyidagi asarlari O'zbekistonda ham tarjima qilinib nashr qilingan: 1962 yilda "Godan" ("Qismat"), 1967 yilda "Nirmala", "Jang maydoni" (1985y.), "Rama haqida qissa" (1970y.), "Bir kelin hikoyasi" (1973y.) "Najot" (1975y.) "Fidoiy" (2003) hamda "Sut haqi", "Ikki ho'kiz", "Qamoq", "Yuvoshlik" kabi qissa va hikoyalari ham nashr etilgan. Premchand asarlarining o'zbek tiliga tarjima qilishda mohir tarjimon Amir Fayzullaning (1945-2020) mehnatlari beqiyosdir.

Chinnappa Bharati (1935–2022) qalamiga mansub "Chanqov" ("Dahm") romani 1976 yilda nashr etilgan va ayni shu roman unga mashhurlik keltirgan. 1985 yilda "Ittifoq" ("Sangam"), 1991 yilda "Shakar" ("Sarkara"), 2005 yilda "Pavlayi" va 2006 yilda "Konchilar" ("Surangam") kabi romanlari chop etilgan. "Ittifoq" romani uchun 1985 yilda Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan, "Chanqov" romani eng yaxshi o'ntalik romanlar sarasiga kiritilgan.

1957 yili Moskvada o'tkazilgan Xalqaro yoshlar festivalida Hindiston vakili sifatida ishtirok etgan. Chinnappa Bharati 1955 yilda Indoneziyaning Bandung shahrida o'tkazilgan Osiyo-Afrika tinchlik konferensiyasida tamilnadulik talaba sifatida qatnashgan. O'qishni tugatgach siyosat bilan shug'ullana boshladi. 1960

yilda Chinnappa Bharati Hindiston dehqonlari uyushmasining, Tamilnadu shtatidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, xususan, “Jadha” harakatida faol ishtirok etadi.

Ushbu maqolada Premchandning shoh asari bo‘lmish “Godan” (“Qismat”, 1936y.) nomli romani hamda Chinnappa Bharatining “Dahm” (“Chanqov”, 1976y.) nomli romanlarining mushtarak va tafovutli jihatlari ko‘rib chiqiladi.

“Qismat” romani voqealarining bosh maydonida qishloqdagi hayot, sho‘rpeshona Ho‘ri va uning oilasidir. Kundan kunga qishloq sudxo‘rlarining qurboniga aylanib borayotgan Ho‘ri va uning oilasining eng katta orzusi sigirga ega bo‘lish edi. Har safar hosil yig‘im termidan so‘ng sigir sotib olishga bo‘lgan ishtiyoqini soliq, turmush kamchiliklar, ro‘zg‘orning to‘lmagan g‘ori, keti uzilmaydigan sudxo‘rning ustama foizlari so‘ndirib boraveradi. Tinimsiz mehnat, qorin to‘yib ovqat yemaslik, muhtojlik va yetishmovchilik – nochor dehqonning peshonasiga bitilgan taqdir. Ho‘rining ayoli Dhaniya–mehnatsevar ayol, Ho‘riga nisbatan kuchliroq obraz egasi. Oilaning 3 nafar farzandi bor. Ular ham kun kechirish uchun dalada mehnat qilishadi. Ho‘rining ikki ukasi bo‘lib ular avvaliga bir oilada yashashgan. Arzimagan pul tufayli aka-ukalar alohida yashashga majbur bo‘lishadi. Shunda ham Ho‘ri ukalari So‘ba va Xiraga bog‘lanib qolgan. Dhaniya o‘zining qayinukalari bilan bordi-keldi qilmay qo‘ygan. Sigir olib kulba yoniga bog‘lab qo‘yib yashashni Ho‘ri bir umr orzu qiladi. Ukasi Xira omonatga olingan sigirga zahar beradi. Roman voqealari orasida sigirning zaharlanishi bilan bog‘liq voqealar ham o‘ta ishonchli tasvirlangan. Yozuvchi qishloq va dehqon hayotini har tomonlama va ishonchli tarzda ochib bera olgan.

Orzulari ushalmagan Ho‘ri vafot yetadi. Uning dafn marosimiga uning bevasi arzimagan chaqa topa oladi. Zahmatkashning ayanchli qismati shunday yakun topadi. Bechora Ho‘ri va uning oilasi hosildan hosilgacha kun kechirardi. Sudho‘rdan olingan qarz kundun kunga foiz tug‘ardi, Ho‘ri uning foizini to‘la olardi, qarzning o‘zini emas. Bunday yo‘qchilik Xo‘rining ayoli Dhaniyaga ham ta‘sir ko‘rsatgandi, 20 yillik turmushi davomida farzand dog‘ini ko‘p marta ko‘rgan ayolning avvalgi chiroyidan asar ham qolmagandi. Yo‘qchilikdan Ho‘rining ayoli uchun yangi sari sotib olishga qurbi yetmas edi. Hind qishloqlaridagi dehqonlarning haqiqiy hayotni, qarz va uning degan baloning asoratlarini hamda tabiat manzaralarini muallif mohirona va haqqoniy tasvirlab beradi.

Chinnappa Bharatining “Chanqov” romani zamonaviy sivilizatsiya yetib bormagan qishloq hayoti, qashshoq oilaning hayoti haqidadir. Romanning bosh qahramoni Marappan – kambag‘al dehqon, Kongu viloyatidagi qishloqda yashaydi. Marakkal – uning xotini, uch farzandning onasi.

Romani syujetining asosini ham oilaviy mojaro tashkil qiladi, shu bilan birga kambag‘al, qashshoq dehqonlar muhiti tasvirlangan. "Xudoga va yerga ishongan" Marappanlar oilasining boshiga katta tashvish tushadi: katta o‘g‘li harijan (to‘rt kastaga mansub bo‘lmagan, eng past tabaqa vakillari) ayolga uylanmoqchi. Panchayat (qishloq sudi), agar Marappan o‘g‘li bilan aloqani uzmasa, va uni o‘ldi, deb dafn marosimini o‘tkazmasa, o‘zlarining tabaqalaridan chiqarish fikri bilan tahdid qiladi.

Dindor hindular uchun kastasini yo‘qotishdan yomonroq narsa yo‘q va Marappan bunga rozi bo‘ladi. Kerakli marosimlar o‘tkazilganidan so‘ng, uning

panneyar (yer egasi) oldidagi qarzi shunchalik oshib ketadiki, u o'z yerini berishga majbur bo'ladi. Endi u dehqon emas, achhut (tegib bo'lmaslar) kabi gadoydir. Ammo itoatkorligi uchun mukofot sifatida yer egasi uni xo'jalik ishchilari ustidan nazoratchi qilib tayinlaydi. Marappanning vazifasi jismoniy jazolarning (qamchilash va boshqalar) bajarilishini nazorat qilishdir.

Bu romanda kitobxon kuchsiz, himoyasiz odamlarga nisbatan tasavvur qilish qiyin bo'lgan shu kabi shafqatsizlik va o'zboshimchalik ko'rinishlariga duch keladi. Dehqonlar yer egalari tomonidan har tomonlama azoblab, ezilib kelinishi roman muallifi tomonidan asosli ochib berilgan.

Bu roman ekspluatatsiyaning yana boshqa o'ziga xos jihatlarini ochib beradi. U kastachilik va sinfiy tabaqalanishni tanqid qiladi. Romanda xalqni tobora kambag'allikka olib boruvchi ijtimoiy sabablar ham ko'rsatib o'tiladi. Asarning markazida Marappaning oilasi va bu oilaning ijtimoiy nochorlik tufayli past-baland hayoti yoritiladi. Romanning oxirgi qismigacha faqatgina ijtimoiy axloq, madaniyat, ierarxik tizim va yerga egalik qilish kabilar tasvirlangan. Bundan tashqari romandan maishiy muammolar, ya'ni qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuvi masalasi ham o'rin olgan. Adib bu romani orqali nafaqat birlashish zarurligini ko'rsatadi, balki hukumat qarorlari va Konstitutsiyasida ko'rsatilgan qonuniy huquqlarga faqatgina ekspluatatorlarga qarshi kurash orqali erishish mumkinligini yoritib beradi. Voqealar rivojida hukumatning tazyiqlariga qaramasdan, ishchilar va mazlumlar tabaqasi birlashadi va o'z huquqlari uchun kurashadilar.

Ikkala roman mualliflari, ya'ni Premchand va Chinnappa Bharati o'z romanlarini hayotiy tajribaga, ko'rgan kechirganlariga suyangan holda yozadilar.

Premchand nochor oila vakili, o'qituvchi sifatida o'zining kuzatuvlarini "Qismat" romanida ifodalangan bo'lsa, Chinnappa Bharati dehqon farzandi sifatida hayotiy voqealarni o'zining tajribasiga suyangan holda "Chanqov" da ko'rsata olgan. Mazkur ikki roman o'rtasida 40 yillik farq bo'lsada, ikkala asarning bosh g'oyasi hind qishloqlaridagi ayanchli holat, nohaq zulm, dehqonlarning azob-uqubatlari aks ettirilgan. "Qismat" ning bosh qahramoni—Ho'ri va uning oilasi bilan bog'liq voqealar tasvirlangan bo'lsa, "Chanqov" da Marappan va uning oila bilan bog'liq voqealar aks ettirilgan. Premchandning "Qismat" romani va Chinnappa Bharatining "Chanqov" romanidagi bosh qahramonlar va ikkinchi darajadagi qahramonlarning soni va ifodasida ham o'xshashlik kuzatildi: "Qismat"— Ho'ri, uning rafiqasi Dhaniya, o'g'li Go'bar, yer egasi Amarpal Singh kabi qahramonlar "Chanqov" da ham bor, ya'ni bosh qahramonlar— Marappan, uning ayoli Marakall, ularning o'g'li Kandan va boshqalar. Bu shunchaki tasodif emas, ijtimoiy hayot qabohatlari, qullik, bosim va zo'ravonlikning umumiy asoratlaridir. Bu holat ikki roman o'rtasidagi mushtaraklikni belgilaydi.

"Qismat" da ko'tarilgan ijtimoiy muammolarning yechimi, adolat uchun kurash, zulmga qarshi ovoz ko'tarish yo'llari "Chanqov" da berilgan. Ikki romanning bosh qahramoni Ho'ri va Marappanning hayotiy qarashlarida ham o'xshashlik bor. Ikki qahramon ham kun kechirish uchun mehnat qilishni, mehnat qilgan dehqon fermer bo'lishini, agar fermer zararga kirsam, qor ishchi bo'lishi mumkinligini, nima bo'lganda ham yerida halol mehnat qilib kun kechirishni o'z maqsadi deb biladi.

Premchand "Qismat" romanida turli personajlar, syujetdagi voqealar, burilishlar, bahs-munozaralar, zamon muvaffaqiyatiga erishdi. Zero, ikki romanist orasida tafovut yarim asrni tashkil etsada, ikkala adibning g'oyaviy dunyoqarashi va ijodiy yo'li mushtarakdir. Qiyoslangan har ikki romanda ham insoniylik, ona yerga bo'lan muhabbat va ijtimoiy o'sish kabi mavzularni o'zida aks ettirgan. Qishloq hayoti, tabiat manzarasini tasvirlashdagi yondashuvda ham mushtaraklik ko'zga tashlandi. Premchandning "Qismat" romanida adib quyidagilarni keltiradi:

जेठ का सूर्य आमों के झुरमुट से निकालकर आकाश पर छायाई हुई लालिमा को अपने रजत-प्रताप से तेज़ करता हुआ ऊपर चढ़ रहा था और हवा में गर्मी आने लगी थी। [5, 6]

Tarjimasi: Jeth oyining quyoshi ambah uyumidan ko'tarilib, qizg'ish osmonga kumushrang yorug'likdan pardani shiddat bilan torta boshladi va havo iliy boshladi.

Chinnappa Bharatining "Chanqov" romanida tasvirlangan atrof-muhit, qishloq hayotiga yuzlanamiz:

माघ मास की काली-कजरारी घटाएँ आसमान में चिथड़ों की तरह चिंदी-चिंदी होकर तिरती जा रहीं थीं। बीच-बीच में जब पुरवाई हवा चलती तो बादल सरपट भागते नज़र आते। शाम होते-होते आकाश स्वच्छ हो गया समंदर की तरह गहरी नीलिमा लिए। सर्द हवा का पहला झोंका देह को कैंपा गया। दोपहर की उमस में सूखी मिट्टी, सर्द हवा से लिपटकर सोंधी खुशबू बिखेरने लगी। मूँगफली, बाजरा, भटनास आदि की तीखी महक मन को आद्यंत शीतल कर गया। [4,11]

Tarjimasi: Mag oyining qora bulutlari osmonda arqonday suzib yurardi. Ora-chora, sharq shamoli esganda, bulutlar chayqalayotgandek ko'rinardi. Kechga yaqin osmon musaffolashib dengizdek moviy rangga burkaldi. Ilk sovuq shamol etni junjiktirib o'tdi. Tushdan keyingi namlik ta'sirida quruq yer sovuq shabadaga o'ralib yoqimli hidni tara boshladi. Yer yong'oq, tariq, loviya va boshqalarning o'tkir hidi vujudga sokinlik bag'ishlab yubordi.

Ikki adib—Premchand va Chinnappa Bharatining ijodida xalqchil til, iboralarning o'z o'rnida qo'llanishi asarning badiiyatini oshirganligini ko'rish mumkin:

होरी ने चौधरी को डांटा—तुम चुप रहो चौधरी, नहीं मेरे क्रोध में पड़ जाओगे, बुरा होगा। औरतजात इसी तरह बकती है। आज को तुमसे लड़ गयी, कल को दूसरों से लड़ जाएंगी। तुम भलेमानस हो, हंसकर टाल गये, दूसरा तो वरदास न करेगा। कहीं उसने भी हाथ छोड़ दिया, तो कितनी आवरू रह जाएगी, बताओ? [5,30]

Tarjimasi: Ho'ri Chaodhriga tanbeh berdi – Sen jim tur, Chaodhri, bo'lmasa mendan ko'radiganini ko'rasan, yomon bo'ladi. Ayol zoti o'zi shunaqa. Bugun sen bilan urushdi, ertaga boshqalar bilan jang qiladi. Sen odoblisan, kulib yengasan, boshqasi bo'lganda chidab tura olmasdi. Agar u ham qo'l silatb ketsa, qanchalik obro'ing qoladi, o'zing ayting-chi?

–"सास कैसी है? झगड़ालू तो नहीं?"

–"यह कहना मुश्किल है। बाहर से बहुत सीधी-सादी लगने वाली सास, घर में बहू के साथ ऐसा बर्ताव करती है जैसे नेवले और साँप का रिश्ता है। ये सब तो तकदीर का लेखा है।"

मारक्का चुप रही फिर बोली, "हाँ सो तो है पर जान-बूझकर हम अपने पैरों पर कुल्हाड़ी तो नहीं मार सकते।" [4,46]

Tarjimasi: Qaynonang yaxshimi, janjalkash emasmi?

"Buni aytish qiyin. Tashqaridan juda sodda-sipo ko‘ringan qaynona uyda keliniga shunday munosabatda bo‘ladiki, huddi mangus bilan ilonga o‘xshaydilar(it-mushuk). Bularning bari taqdir bitigidir".

Marakka sukut saqladi va keyin: "Ha, shundaylikka shunday, lekin biz ataylab oyo‘imizga bolta ura olmaymiz-ku", dedi.

Premchandning "Qismat" romani Hindiston qishloq hayoti va bechorahol dehqon tashvishlari haqidagi bir adabiy hujjatdir, desak mubog‘a bo‘lmaydi. Chinnappa Bharatining "Chanqov" romanida esa mafkuraviy kurash, qullik, feodallarning nochorlarga qilgan azob-uqubati mohirona tasvirlangan. Har ikkala romanda ham qishloq xayoti, dehqonlarning muammosi bosh mavzu sifatida talqin qilingan.

Ikki ijodkorning ijodi tahlil qilinganda yana bir holat ko‘zga tashlandi. Premchand rus va o‘zbek hindshunosligida keng o‘rganilgan, ammo Chinnappa Bharati ijodi va romanlari o‘rganilmagan. Debocha sifatida o‘zbek kitobxonini uni "Pavlayi" romani orqali taniy boshladi. [7]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Балин В. Премчанд и его романы «Обитель любви» и «Воздаяние». Литературы Индии. –М., 1958;
2. Начало творческого пути Премчанда и сборник «Созе Ватан». Современная индийская проза. –М., 1962; Чельшев Е.П. Литература хинди. –М., 1968; Современная индийская литература. –М., 1981; Гаврюшина Н.Д. Премчанд и роман XX века. –М., 2006; Ходжайева Т.А., Муhibova U.U. "Hindiston adabiyoti. T.: 2020; Ходжайева N.B. Premchand asarlari o‘zbekcha tarjimalarining leksik-stilistik xususiyatlari. (PhD, avtoreferat) –T.: 2019
3. चिन्नप्पा भारती. प्यास. दिल्ली, 2010.
4. प्रेमचंद. गोदान. दिल्ली, 1998.
5. सन्वेद. चिन्नप्पा भारती. वर्ग के जुझारू साहित्यकार. नयी दिल्ली. अप्रैल, 2011
6. Chinnappa Bharathi's novels. A critical study. Chennai, Madras 1996
7. "Jahon adaboyoti", №1-2, Toshkent, 2015.